

TURKISTONDA BARPO ETILGAN RUS QISHLOQLARI

Imiy rahbar: t.f.n dotsent A.Boltayev

JDPI "Tarix" magistranti S.Qobulov

Annotatsiya. Mazkur maqolada Turkiston zaminida XIX asr II yarmidan XX asr boshlarigacha bo'lgan davrda mustamlakachi hokimiyat tomonidan mahalliy yerlarning o'zlashtirilishi, ko'chirish siyosati natijasida yangidan yangi rus turar manzilgohlari tashkil topganligi, o'sha ko'chirib keltirilgan rus xalqi uchun yaratilgan sharoitlar, berilgan imkoniyatlar hamda rus ta'lim muassasalari faoliyati tarixiy manbalar asosida yoritib berilgan. Shuningdek, maqolada mustamlakachilar tomonidan Turkiston o'lkasida olib borilgan agrar hamda melioratsiya sohasidagi zo'ravonlikka asoslangan siyosat va uning qo'pol xatosi, ushbu yo'l qo'yilgan xatolar oqibatlar shu bilan birgalikda ko'chirib keltirilgan aholiga unumdor yerlarning berilishi va bu siyosatga qarshi xalq noroziliklari ham bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Turkiston, agrar, melioratsiya, posyolka, rus-tuzem maktabi, Podsho Rossiyasi, Mirzacho'l, Avliyoota, pomeshchik, kapitalist, geopolitika, strategiya, "rus elementi".

Аннотация. В статье описывается освоение новых земель на территории Туркестана со второй половины XIX века до начала XX века колониальными властями, создание новых русских поселений в результате переселенческой политики, созданные условия для переселенцев из России. Освещаются возможности и деятельность российских учебных заведений на основе исторических источников. В статье также обсуждается насильственная политика колонизаторов в области сельского хозяйства и мелиорации земель в Туркестане и ее грубая ошибка, последствия этих ошибок, а также передача плодородных земель перемещенному населению и эта политика. также было заявлено.

Ключевые слова: Туркестан, аграрный, мелиорация, поселение, русская школа, царская Россия, Мирзачул, Авлийота, помещик, капиталист, geopolitika, стратегия, «русский элемент».

Annotation. This article describes the development of new lands on the territory of Turkestan from the second half of the XIX century to the beginning of the XX century by the colonial authorities, the creation of new Russian settlements as a result of the resettlement policy, the conditions created for the resettled Russian people. The

opportunities provided and the activities of Russian educational institutions are covered on the basis of historical sources. The article also discusses the violent policy of the colonialists in the field of agriculture and land reclamation in Turkestan and its gross error, the consequences of these mistakes, as well as the transfer of fertile land to the displaced population and this policy. public protests against it were also stated.

Key words: *Turkestan, agrarian, land reclamation, settlement, Russian-style school, Tsarist Russia, Mirzachul, Avliyota, landowner, capitalist, geopolitics, strategy, "Russian element".*

“Barchamizga ayonki, el-yurtimiz asrlar davomida ozod va erkin hayotni, adolatli jamiyatni orzu qilib yashadi. Bu muqaddas maqsad yo‘lida jon olib, jon berib kurashdi, mashaqqatli sinovlarni mardona yengib o‘tdi. Xalqimiz qalbidagi hurriyat sari ezgu intilishni hech qanday bosqin, zulm va zo‘ravonliklar yo‘qota olmadi. Bunga ko‘hna tariximizning o‘zi guvoh. Bugun biz yagona xalq, yagona millat bo‘lib, ko‘zlagan yuksak maqsadlarimiz sari dadil bormoqdamiz.”¹, -deb ta’kidlagan edi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev.

Aniqki, doimo mustamlakachi davlatlar o‘zi mustamlaka qilgan hududlarda o‘ziga hayrihoh bo‘lgan tuzilma, hudud aholi yashash maskani yaratishga intiladi. Biz bu harakatlarni Buyuk Britaniyaning Hindistondagi, Janbiy Afrika Respublikasida, ispan va portugallarning esa Janubiy Amerika qit’asidagi, fransuzlarning Janubiy-sharqiy Osiyodagi, hatto uzoq o‘tmishda arablarning Piriney yarim orolidagi siyosatlarida o‘z davlatlaridan kelganlar uchun alohida-alohida yashash manzilgohlarini tashkil etishga uringanlarida ko‘rishimiz mumkin. Turkiston esa ruslar tomonidan istilo qilinganidan so‘ng dastavval agrar masala mustamlakachilik siyosatidagi bosh masala bo‘lgan bo‘lsa, uning natijasi o‘laroq hududda rus qishloqlarini tashkil etish asosiy maqsad edi. Bunda bir yo‘la ikkita vazifani hal etish kyerak edi: a) Podsho hukumatining Turkiston o‘lkasidagi mavqeini tobora mustahkamlab borish: b) O‘lkaning boy tabiiy va iqtisodiy zahiralaridan rus pomeshchiklari va kapitalistlari manfaati yo‘lida foydalanish.

¹ “Xalq so‘zi” gazetasi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 30 yillik bayramiga bag‘ishlangan tantanali marosim”dagi nutqi. 2021-yil 31-avgust

Bu maqsad yo'lida esa asosiysi ushbu maqadni amalga oshirishda ruslarni qo'llovchi, ularga tirgak bo'luvchi aholi va ular yashaydigan maskanlar bo'lishi kerak edi.

1. Podsho hukumatining uzoqqa mo'ljallangan geopolitik va strategik rejalarida Turkiston o'lkasini "Rus elementi" bilan to'la va har tomonlama o'zlashtirilgan, turli maqsadlarga xizmat qiluvchi to'siq yoki oraliq xavfsizlik zonasini barpo qilish, hamda bu o'lkani turli-tuman tabiiy boyliklarini va xomashyo zaxiralarini etkazib byeradigan maskanga aylantirish ko'zda tutilgan edi. Bu yo'nalishda eng birinchi galda paxtachilikni keskin ko'paytirish ko'zda tutilgan edi.

2. O'lkada uzoq asrlar davomida shakllanib tarkib topgan mahalliy irrigatsiya sohasini, Podsho hukumati birinchi galda maqsad qilib qo'ygan va yuqorida ko'rsatilgan ulkan rejani tezda amalga oshirish imkonini byermas edi. Buni yaxshi tushungan mustamlakachi ma'muriyat,-irrigatsiya sohasida qator, uzoqqa mo'ljallangan jiddiy islohatlarni amalga oshirishga kirishdi. Bir qarshda bu islohatlarning boshlanishi tasodifiy yoki amaliyotda yuzaga kelgan muammolarni hal qilishga qaratilgan choralar ko'rishida bo'lsa-da, bora-bora mustamlakachi ma'muriyat uchun bu o'zi o'rnatgan unitar, bosqichma-bosqich boriluvchi va bajariluvchi harbiy buyruqbozlikka asoslangan, boshqaruv tizimining talab va ehtiyojlariga mos keladigan, butunlay yangi tizimini shakllantirish kerakligi ayon bo'lib qoldi.

3. Podsho hukumatining Turkistonda irrigatsiya sohasida o'tkazilgan mustamlakachilik siyosati, birinchi navbatda yer va suvdan foydalanish bo'yicha istilochilar manfaatlariga mos tushadigan yangi qonunchilikni yaratishda va harbiy buyruqbozlikka asoslangan yangi ma'muriyat manfaati va ehtityojlariga javob byeradigan markazlashgan boshqaruv tizimini barpo qilishda, yana o'zini yaqqol namoyon qildi.

Shu jihatdan olib qaralganda, Turkiston ham rus podshosining nazaridan qolmadi. Hududning tabiiy muhiti, u yerni o'zlashtirib, mahalliy manzilgohlar barpo qilish, yerlarni sun'iy sug'orish uchun ariq va kanallar qazish orqali qishloq xo'jaligini barpo qilish, ijtimoiy ahvolni mustahkamlashm ko'chib kelayotgan aholining milliy va diniy holatlarini hisobga olish lozim. Buning uchun esa barcha imkoniyatlar ishga solindi. Yerdan foydalanish bo'yicha tajribalar katta ahamiyatga ega bo'ldi. Ayniqsa almashlab

ekishga e'tibor kuchaytirildi. Unga rioya qilmaslik esa vaqtinchalik hol edi, chunki u rus dehqonlari uchun yangilik bo'lib, ular dastlabki paytlarda qo'riq yerlardan mumkin qadar ko'proq naf ko'rishga intilar edilar², deb yozgan edi V.F.Koravaev.

G'arb tajribasi asosida ko'r-ko'rona ish olib borilishi natijasida Mirzacho'lda oralig'i 40-50 m bo'lgan tor, sayoz (chuqurligi 0,7-1 m) drenajlardan foydalanila boshlandi. Bunday drenajlar o'lka sharoitiga butunlay javob byermas edi³.

Podsho Rossiyasi qanday qilib bo'lsa ham, ko'proq paxta olish uchun, o'lkada paxta maydonlarini kengaytirish sohasida ba'zi bir choralarni ko'rdi.⁴ Boshqa ekinlar, xususan g'alla maydonlari kamaytirildi. Rossiyadan don keltirilib, paxtaga almashtiriladi.

Sirdaryoning orolga quyilish joyida ruslar tomonidan 1847-yili Raim qal'asi bunyod etildi. 1853-yil Oqmachit, 1864-yil Chimkent, 1865-yil Toshkent bosib olindi. Harbiy istilochilik yurishlari natijasida bosib olingan hududlarda Turkiston viloyati tuzilib, unga harbiy qo'shin qo'mondoni, general-mayor M.Chernyayev gubernator qilib tayinlandi. 1865-yil 6-avgustda imperator Aleksandr II (1855-1881) tomonidan tasdiqlangan "Turkiston viloyatini idora qilish to'g'risidagi Muvaqqat Nizom" ga muvofiq viloyatda harbiylashtirilgan boshqaruv tartiblari o'rnatildi. 1886-yilgi "Nizomda" esa hukumat tasarrufida qolayotgan bo'sh turgan davlat yerlariga rus aholisini joylashtirish muhim ekanligi qat'iy belgilandi. 1882-1884-yillarda o'lkani tekshirgan imperatorning maxfiy maslahatchisi F.Girs Turkistonda 2.404.000 kishi yashashini va ulardan 1.200.000 kishi erkak ekanligini yozgan. Shuningdek o'lkaga ko'chib kelgan rus fuqarolariga katta imtiyozlar berildi. Masalan, mablag', turar-joy, yer maydonlari, kreditlar berilgan. Ular 5 yil davomida soliqlardan ozod etilgan. Rossiyadan ko'chib kelganlar asosan qishloq aholisi bo'lgan. Ular uchun o'lka ma'muriyati maktab va cherkov qurib berganlar. Turkiston o'lkasida harbiy xizmatchilar yashab qolishlari va tomorqa yer olishlari mumkin bo'lgan. Bunday imkoniyatlar Rossiyaning markaziy rayonlaridanko'plab aholining ko'chib kelishiga imkoniyat yaratgan. 1875-yil Avliyootada Rossiyadan kelgan dehqonlarning birinchi qishlog'i paydo bo'ldi. 15 yil davomida (1875-1890) Turkiston o'lkasiga 1300 oila ko'chib kelib joylashdi, 19 ta rus

² Koravayev V.F. "Golodnaya step v ee proshlom i nastoyashem", Petrograd. 1914.

³ R.Egambyerdiyev, A.Razzoqov. O'zbekistonda qo'riq yyerlarini sug'orish, o'zlashtirish va melioratsiyalash tarixi. T., Fan-1984.

⁴ Razzoqov A. Melioratsiyaning xalq usullari, T.:1982.

qishlog'i tashkil topdi. Birgina, 1891-1892 yillarda ko'chib kelganlarning 25 ta posyolkalari paydo bo'ldi. Keyinchalik, bora-bora naaqaat ko'vhib kelgan shaxslar, balki yirik korxonalar ham daromad olish maqsadida o'lkadan yerlar sotib ola boshladi. Rossiya imperiyasining ko'chirib kelish siyosati Turkiston o'lkasidagi mustamlaka tizimini mustahkamlash maqsadida amalga oshirilgan edi. 1892-yil boshlab Rossiyadan o'zboshimchalik bilan ko'chib kelgan kishilar ham ma'murayat ruhsati bilan ko'chirilganlarga berilgan imkoniyatlardan foydalanishi mumkinligi e'lon qilindi. Bu o'lkaga ko'chib keluvchilar sonining keskin darajada oshishiga sabab bo'ldi.

Ko'chirib keltirib joylashtirilgan aholining ko'payishi, ularga unumdor yerlarning berilishi mahalliy aholi vakillarining jiddiy noroziligiga sabab bo'lgan. Toshkent hududi va o'lkaning Yangi Marg'ilon, Samarqand, Andijon kabi shaharlarida ham ko'chib kelganlarning posyolkalari paydo bo'ldi. O'lkadagi yirik shaharlar ikkiga; yangi-ma'muriyat, harbiy qismlar joylashgan va ko'chirib keltirilganlar yashaydigan qism hamda eski-mahalliy aholi vakillari yashaydigan qismlarga bo'lindi. Masalan, Toshkentdahi Bo'zsuv anhuri shahrni ikki qismga ajratgan chegara bo'ldi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, o'lkani o'zlashtirish asnosida o'lkada juda ko'plab rus qishloqlari paydo bo'la boshladiki, biz ularni quyidagi ro'yxatdan ko'rishimiz mumkin:

1. Zaparojeskiy qishlog'i-1885 yilda asos solindi
2. Romanov qishlog'i- 1885 yil
3. Nadejdinskiy qishlog'i-1886 yil
4. Sretinsk qishlog'i-1886 yil
5. Nijne-volinsk qishlog'i-1889 yil
6. Nikolaev qishlog'i-1891 yil
7. Nikolsk qishlog'i-1893 yil
8. Obetovannyi qishlog'i-1897 yil
9. Vyernxne-volinsk qishlog'i-1897 yil
10. Konnegvardeysk qishlog'i-1897 yil
11. Duxovsk qishlog'i -1901 yil
12. Spasskiy qishlog'i-1906 yil
13. Axmonqul qishlog'i-1909 yil

14. Sirdaryo qishlog‘i-1909 yil

15. Veliko-Alekseevsk qishlog‘i-1913 yil⁵

Ularninig har birining o‘z yer maydonlari, o‘ziga yarasha xonadonlarida istiqomat qiluvchi aholisi bor edi. O‘lkada rus qishloqlari paydo bo‘lishiga 1891-1895-yillarda Bekoboddan Mirzacho‘lgacha kichik kanal qazilib 7 ming gekarga yaqin yerning sug‘orilishi va boshqalar sabab bo‘ldi. Chunki Podsho hukumati Mirzacho‘lning sug‘orma yerlarini Markaziy Rossiyadan ko‘chirib kelingan o‘ziga to‘q dehqonlarga bo‘lib berdi. Mahalliy aholiga bu yerlarda dehqonchilik qilish taqiqlandi. Ko‘chirib keltirilgan dehqonlar Sirdaryo o‘zani hududidagi sog‘ tuproqli yalangliklarni o‘zlashtira boshladilar. Natijada biz yuqorida ta’kidlaganimizdek turli nomdagi rus qishloqlari paydo bo‘la boshladi. Bu uchastkalarda yashovchi (dehqon) lar yerni qanday sug‘orishni, yer sharoitini bilmasdilar, suvni isrof qilardilar. Natijada yerlarning sho‘rlanishi oshib borardi. Masalan, Konnogvardeyskiy, Romanovski, Nadejdinskiy, Obetovannyy , Vyerniy va boshqa qishloqlarda ham huddi shunday ahvol yuz berdi⁶

Lekin shuni alohida ta’kidlash kerakki, ushbu tashkil etilgan hududlarda , shu bilan birga mahalliy aholi uchun ham sekin-astalik bilan yangi “rus-tuzem” maktablari tshkil etila boshlandi. Ayrim Rus-tuzem maktablari qoshida kattalar uchun (rus grammatikasi asosini o‘rgatish maqsadida) kechki maktablar, ko‘chmanchi aholi uchun esa internatlar tashkil qilingan. Keyinchalik 2 yillik va ayollar uchun ham Rus-tuzem maktablari ochilgan. Rus-tuzem maktablarida mahalliy aholining bir qismiga o‘sha davr uchun ilg‘or bo‘lgan madaniyat yutuqlaridan baxramand bo‘lish imkoni yaratilgan.⁷

1. Xulosa shundan iboratki, Rus hukumati Turkistonda, aholi posyolkalarini tashkil etishni ko‘zda tutuvchi siyoosatni amalga oshirishda asosiy vosita sifatida o‘lka hududlarini foydalanishga yaroqli yerga aylantirish, tabiiy boyliklar va xom-ashyo zaxiralarini yetkazib berishni bosh sabab qilib ko‘rsatdi.

2. Turkiston zaminining turli-tuman boyliklarini egallashni, uni Rossiyaning xom-ashyo manbaiga va tayyor maxsulotlar bozoriga aylantirishni ko‘zlab, paxtachilikni rivojlantirishni birinchi darajali vazifa qilib qo‘ydi. Mustamlakachilar hukmronligi

⁵ Boltayev A. “Mirzacho‘l-Jizzax: o‘tmishi va buguni”, T.

“Fan” nashriyoti, 2007 yil, 86-87 betlar

⁶ Boltayev A. “Mirzacho‘l-Jizzax: sug‘orma dehqonchiligi tarixi”,

T.”Tafakkur” nashriyoti, 2021 yil

⁷ O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

davrida paxta yakkahokimligining poydevori bunyod etildi. Shu bilan birga mustamlakachilik siyosatining yanada mustahkamlanishi Rossiyadan yuz minglab kishilarning ko'chirib keltirish imkoniyatini yaratdi. Ko'chirib keltirilgan rus aholisiga o'lka aholisining yeti uxlab tushiga ham kirmagan imkoniyat va sharoitlar berildi. Hotto, ularning ta'lim olishlari ham e'tibotdan chetda qolmadi.

3. O'lkada uzoq asrlar davomida shakllanib tarkib topgan mahalliy madaniyat an'analarini poy-mol qilish hamda Podsho hukumati birinchi galdagi maqsad qilib qo'ygan ulkan rejani, tezda amalga oshirishga kirishdi. Buni yaxshi tushungan mustamlakachi ma'muriyat ko'chirish tizimida qator uzoqqa mo'ljallangan jiddiy islohatlarni amalga oshira boshladi. Bir qarashda bu islohatlarning boshlanishi tasodifiy yoki amaliyotda yuzaga kelgan muammolarni hal qilishga qaratilgan choralar ko'rinishida bo'lsa-da, bora-bora mustamlakachi ma'muriyat uchun, bu o'zi o'rnatgan unitar, bosqichma-bosqich boriluvchi va bajariluvchi harbiy buyruqbozlikka asoslangan, boshqaruv tizimining talab va extiyojlariga mos keladigan, butunlay yangi tizimni shakllantirish kerakligida ayon bo'lib qoldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "Xalq so'zi" gazetasi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 30 yillik bayramiga bag'ishlangan tantanali marosim"dagi nutqi. 2021-yil 31-avgust
2. Koravayev V.F. "Golodnaya step v ee proshlom i nastoyashem", Petrograd. 1914.
3. R.Egambyerdiyev, A.Razzoqov. O'zbekistonda qo'riq yyerlarini sug'orish, o'zlashtirish va melioratsiyalash tarixi. T., Fan-1984.
4. Razzaqov A. Melioratsiyaning xalq usullari, T.:1982.
5. Boltayev A. Mirzacho'l-Jizzax: o'tmishi va buguni. T. "Fan" nashriyoti, 2007 yil
6. Boltayev A. "Mirzacho'l-Jizzax: sug'orma dehqonchiligi tarixi", T."Tafakkur" nashriyoti, 2021 yil
7. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil